XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 26-iyun VII-16-107-9-0-K/25 Sirdaryo viloyati

Sirdaryo viloyatida ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvining xizmat tariflari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2023-yil 23-oktabrda hududlarda ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yaxshilash bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ichimlik suvi tannarxini arzonlashtirish, buning uchun suv korxonalari ishlatadigan elektrning bir qismini “yashil” energiyaga o‘tkazish, suv bo‘yicha loyihalar qiymatini qayta ko‘rib chiqish, ularda ishlatiladigan materiallarni mahalliylashtirish vazifalari qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6074-sonli farmoni, 2022-yil 22-iyuldagi “Ichimlik suv ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi O‘RQ-784-sonli qonunning 12-bob 46-moddasi, hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-apreldagi “Yoqilgi-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 204-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi:**

1. Sirdaryo viloyatida ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvining xizmat tariflari to‘g‘risida viloyat “Suvta’minot” AJ rahbari Sh.Akramovning hisoboti ma’lumot va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat “Suvta’minot” Ajning 2025-yil 12-maydagi 01/04-2041-sonli, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 2-maydagi 04/17/38-324-sonli va 2025-yil 8-maydagi 04/17/38-345-sonli xulosalari va takliflariga asoslanib aholiga ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv xizmatlari uchun 1-ilovaga,

viloyatning ichimlik suvi yetib bormagan hududlariga maxsus avtotransport vositalarida yetkazib beriladigan ichimlik suv (narxlari) tariflari 2-ilovaga muvofiq belgilansin.

3. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari F.Kushakov, A.Xidirov, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (N.Usmonov) va viloyat “Suvta’minot” AJ rahbari Sh.Akramovga:

bir hafta muddatda barcha mahalla fuqarolar yig‘inlari hamda korxona, muassasa, tashkilotlarda suv ta’minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan suv

ta’minoti va oqova suv xizmatlari bo‘yicha tasdiqlangan suv tarifining narxlari yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borish;

viloyat “Suvta’minot” AJning moliyaviy zarar bilan ishlash sabablarini puxta tahlil qilish hamda ularni sog‘lomlashtirish, ichimlik suvi tariflarini o‘z vaqtida to‘lanishini nazoratga olish, belgilangan rentabellik darajasiga yaqinlashtirish borasida aniq takliflar ishlab chiqish;

ichimlik suvi ta’minoti korxonalarining ahvolini tubdan yaxshilash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish bo‘yicha ish rejalarini ishlab chiqish;

barcha ichimlik suvi ishlab chiqarish va taqsimlash inshootlarini xatlov (inventarizatsiya)dan o‘tkazib, ularning to‘liq ro‘yxati va texnik holati bo‘yicha ma’lumotlarni o‘rnatilgan tartibda viloyat hokimligiga taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, viloyat teleradiokompaniyasi, “Yangi Sirdaryo” gazetasi tahririyatiga qaror ijrosi yuzasidan olib borilayotgan ishlarni doimiy ravishda ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini ta’minlash viloyat hokimining o‘rinbosarlari F.Kushakov, A.Xidirov, viloyat “Suvta’minot” AJ rahbari Sh.Akramovga, nazorat qilish Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi A.Bababekov zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingandan keyin o‘n besh kun o‘tgach kuchga kiradi.

Kengash raisi

AXMEDJANOVA
POKIZA
SHAVKATOVNA

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati
Kengashining
2025-yil 26-iyundagi
VII-16-107-9-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

“Sirdaryo suv ta’minoti” AJ tomonidan taklif etilgan 1 m^3 ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari narxlari

T/r	Xizmat turlari	Iste’mol turi	O‘lchov birligi	Amaldagi narxi QQS siz (so‘mda)	Yangi narx QQS siz (so‘mda)
1.	Ichimlik suvi	aholi iste’molchilariga	1 m^3	2 500	4 500
		budjet tashkilotlariga	1 m^3	7 000	13 000
		ulgurji iste’molchilariga	1 m^3	7 000	13 000
2.	Oqova suv	aholi iste’molchilariga	1 m^3	800	1 200
		budjet tashkilotlariga	1 m^3	2 000	3 350
		ulgurji iste’molchilariga	1 m^3	2 000	3 350

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati
Kengashining
2025-yil 26-iyundagi
VII-16-107-9-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

“Sirdaryo suv ta’minoti” AJ tomonidan viloyatning ichimlik suvi yetib bormagan hududlariga maxsus avtotransport vositalarida yetkazib beriladigan ichimlik suvi (narxlari) tariflari

Xizmat turi	Iste’molchilar	O‘lchov birligi	Tashib etkazib berish narxi (tarifi) QQS-siz (so‘mda)
Avtotransport vositasida ichimlik suvi tashib yetkazib berish	Aholi iste’molchilari, budjet muassasalari hamda ulgurji tashkilotlar uchun	1 km uchun	18 913,0